# BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINING FONETIK KOMPETENTSIYASINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYA ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Mamasidikova Naima Toxirjon qizi

https://doi.org/10.5281/zenodo.7198592

**Kalit so`zlar:** Kompetentlik, mehnat, bardoshli, noan'anaviy, mustaqil, qobiliyat, ijtimoiy, innovatsion, kommunikativ.

**Key words:** Competence, work, durable, unconventional, independent, ability, social, innovative, communicative.

"Kompetentlik" tushunchasining mohiyati. Bozor munosabatlari sharoitida mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Xo'sh, kompetentlik nima? Kasbiy kompetentlik negizida qanday sifatlar aks etadi? Pedagog o'zida qanday kompetentlik sifatlarini yorita olishi zarur. Ayni o'rinda shu va shunga yondosh g'oyalar yuzasidan so'z yuritiladi. "Kompetentlik" tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik"ni anglatadi. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. SHuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Inglizcha "competence" tushunchasi lug'aviy jihatdan bevosita "qobiliyat" ma'nosini ifodalaydi. Mazmunan esa "faoliyatda nazariy bilimlardan samarali foydalanish, yuqori darajadagi kasbiy malaka, mahorat va iqtidorni namoyon eta olish"ni yoritishga xizmat qiladi. Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi Kasbiy kompetentlik quyidagi holatlarda yaqqol namoyon bo'ladi: Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis: Kasbiy kompetentlik sifatlari. Kasbiy kompetentlik negizida quyidagi sifatlar aks etadi Quyida kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlarning mohiyati qisqacha yoritiladi.

1. Ijtimoiy kompetentlik-ijtimoiy munosabatlarda faollik koʻrsatish koʻnikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subʼektlar bilan muloqotga kirisha olish.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy-pedagogik faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholashni izchil rivojlantirib borish boʻlib, ushbu kompetentlik negizida psixologik,metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetentlik koʻzga tashlanadi.

Kasbiy kompetentlik negizida aks etuvchi sifatlar

Ektremal kompetentlik Psixologik,metodik,informatsion,kreativ, innovatsion, kommunikativ va boshqa kompetentlik

- murakkab jarayonlarda;
- noaniq vazifalarni bajarishda;
- bir-biriga zid maʼlumotlardan foydalanishda;
- kutilmagan vaziyatda harakat rejasiga ega boʻla olishda
- oʻz bilimlarini izchil boyitib boradi; - yangi axborotlarni oʻzlashtiradi;
- davr talablarini chuqur anglaydi;
- yangi bilimlarni izlab topadi;
- ularni qayta ishlaydi va oʻz amaliy faoliyatida samarali qoʻllaydi

## Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O`zbekiston Respublikasi Xalq ta`limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to`g`risida”gi PF-5712-son Farmoni

2. Turgʻunov S.T, Daniyarov B.X, Umaraliyeva M.A, Shodmonova Sh.S, Turgʻunova Sh.M, Tojiboyeva H.M. Oʻqituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentliligini rivojlantirish. – Toshkent: Sano-standart, 2012-yil.

3.Ganiyeva, M. (2021). Effective Methods of TRIZ.

4 Ганиева, М. А., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Формирование методов групповой работы с учащимися общеобразовательных школ. Вопросы науки и образования, (10 (22)), 149-151.

5 Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.

6 Ганиева, М. (2021). ВАЖНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ “ТРИЗ” ДЛЯ РАЗВИТИЯ УЧЕНИКИ НАЧАЛЬНОГО КЛАССА. Academic research in educational sciences, 2(5), 129-133.

7 G'aniyeva, M. (2021). BOSHLANG'ICH SINF DARSLARIDA TRIZ (IXTIROCHI MASALALARINI HAL QILISH NAZARIYASI) DASTURINI QO'LLASHNING SAMARALI USULLARI. Scientific progress, 2(5), 108-112.

8 Ганиева, М. А., Муродинова, Н. Р., & Жумаева, Ш. Х. (2018). Трудности при изучении многозначных глаголов русского языка учащимися-узбеками средних общеобразовательных школ. Проблемы педагогики, (3 (35)), 108-109.

9 Kizi, G. M. A., & Kizi, B. L. A. (2018). The diversities in terminology of relationship. Достижения науки и образования, (9 (31)), 22-23.

10 Murodinova, N., & Ganiyeva, M. The role of family to develop for perfect person.